



GOSPITAL MAKTABDA MEHNATNI MUHOFAZA QILISH VA XAVFSIZLIK BO`YICHA YO`RIQNOMALAR

Alimova Nigora Israilovna

Mehrli maktab davlat ta'lim
muassasasi direktori

Jo'raboyeva Oromxon Hasanovna

Mehrli maktab davlat ta'lim
muassasasi xo'jalik mudiri

Xoliqulova Dilnoza Sheraliyevna

Mehrli maktab davlat ta'lim
muassasasi pedagog xodimi

Annotatsiya: Ushbu maqolada gospital ta'limda mehnatni muhofaza qilish va xavfsizlik bo'yicha tushuncha va yo'l-yo'riqlar ko'rsatilgan.

Kalit so'zlar: mehnatni muhofaza qilish, xavfsizlik, tibbiy ko'rik, baxtsiz hodisalar, yong'in, yo'l harakati qoidalari.



Gospital maktabda mehnatni muhofaza qilish va xavfsizlik quyidagi yo‘riqnomalar orqali reja qilindi:

- Ma‘muriyat va boshqaruv xodimlari uchun mehnatni muhofaza qilishga oid yo‘riqnoma.
- Jabrlanuvchilarga birinchi yordam ko‘rsatishga oid yo‘riqnoma.
- Shaxsiy kompyuter va orgtexnikalar bilan ishlovchi xodimlar uchun mehnatni muhofaza qilishga oid yo‘riqnoma.
- Xodimlarni yong‘in xavfsizligiga rioya qilishga oid yo‘riqnoma.

“MEHNATNI MUHOFAZA QILISH TO‘G‘RISIDA”GI O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI QONUNI:

Qonunchilik palatasi tomonidan 2016-yil 10-martda qabul qilingan. Senat tomonidan 2016-yil 25-avgustda ma‘qullangan. Eng avvalo mehnat muhofazasi o‘zi nima?

Mehnat muhofazasi bu-mehnat jarayonida insonning xavfsizligini, hayoti va sog‘ligini, ish qobiliyatini saqlanishini ta‘minlashga doir huquqiy, ijtimoiy, iqtisodiy, tashkiliy, texnikaviy, sanitariya-gigiyena, davolash profilaktika, reabilitatsiya tadbirlari hamda vositalari tushuniladi.

Xodimlar o‘zlarining malakasi va ish stajidan qat’iy nazar, mehnatni muhofaza qilish va xavfsizlik texnikasi bo‘yicha ish joyida “Dastlabki” va har 6 oydan oshib ketmagan muddatda “Davriy” yo‘riq oladilar.

- Ta‘lim muassasasi rahbariyati tomonidan ishchi xodimlar tibbiy ko‘rikdan o‘tkaziladi.
- Bunda, maktabgacha ta‘lim muassasasi xodimlari 1 yilda 2 marotaba;
- Umumiy o‘rta ta‘limni tashkil etish bo‘yicha pedagog xodimlar 1 yilda 1 marotaba tibbiy ko‘rikdan o‘tadilar.

Xavfsizlik bo‘yicha umumiy talablar:



- Mehnatni muhofaza qilish, xavfsizlik texnikasi, yong'in xavfsizligi bo'yicha yo'riqnoma talablariga, ichki mehnat tartibi qoidalariga rioya qilishi shart.
- Shaxsiy gigiyena qoidalarini bilishi va unga amal qilishi lozim. Ish joyida chekish, spirtli ichimliklar iste'mol qilish ma'n etiladi.
- Kompyuter va boshqa texnik jihozlarni ishga tayyorlash tartibi, ularni sozligini va butligini tekshirish usullarini bilishi lozim.
- Zaxira chiqish yo'llarini hamda ish vaqtida va favqulodda vaziyat sodir bo'lganda hududda harakatlanish yo'nalishlarini bilishi lozim.
- Har bir xodim ish joyini mehnat muhofazasi, elektr xavfsizligi me'yoriy talablari asosida tashkil qilishi, o'ziga topshirilgan texnika qurilmalarini saranjom va ozoda saqlashi shart.

Ish boshlashdan oldin amal qiladigan talablar:

- maxsus kiyimda bo'lish;
- xonalarni shamollatish;
- sanitariya-gigiyena qoidalariga rioya qilish;
- xonalarni dars mashg'ulotlariga tayyorlash;
- elektr tarmog'iga ulangan rozetka, vklyuchatellar sozligini, kompyuterni elektr ta'minoti tarmog'iga himoyalangan elektr uzaytirgich orqali ulanganligini tekshirish;
- Yong'inga qarshi vositalarning mavjudligini va sozligini tekshirish kerak.
- **Baxtsiz hodisalar** – rejalashtirib bo'lmaydigan, mol-mulk va ishlab chiqarilgan mahsulotga zarar yetkazilishiga, odamlarni shikastlanishiga va ularni o'limiga olib keladigan hodisalardir.

Ish vaqtida amal qiladigan xavfsizlik talablari:

- Kompyuterlar, printerlar va boshqa orgtexnik vositalar murakkab elektron qurilma va mikroprosessorlardan tuzilganligini inobatga olgan holda, ulardan nihoyatda ehtiyotkorlik bilan foydalanish talab etiladi. Kompyuterlarni yaxshi o'rganmay



- ishlatish, biriktiruvchi kabellarni noto'g'ri ulash elektr toki bilan og'ir jarohatlanishga olib kelishi, apparatlarning kuyishiga sabab bo'lishi mumkin.
- Ish stollari, shaxsiy kompyuter toza bo'lishi, ish joyida ortiqcha qog'oz, ishga ta'luqli bo'lmagan buyumlar, ovqat qoldiqlari bo'lmasligi lozim.

Yong'in xavfsizligi talablar:

Darhol muassasa rahbariga va keyin zaruriyat bo'lsa telefon orqali yong'in o'chirish xizmatiga (shunda obyekt manzili, yong'in chiqqan joy va familiyani aytish zarur) xabar berish.

Yo'l harakati qoidalarini bo'yicha:

Katta yo'lning chekkasidagi maxsus yo'lakchadan yurish, yo'lakcha bo'lmagan joyda qarama-qarshi yo'nalish bo'yicha yo'lning chetidan yurish.

Yo'lni faqat maxsus ajratilgan joydan kesib o'tish. Yo'lning bir chetidan ikkinchi chetiga o'tishda yer osti yo'llaridan (tonnel) va temir yo'llarni kesib o'tishda ko'priklardan yoki maxsus joylardan foydalanish.

Yo'lni kesib o'tishda albatta xavfsizlikka ishonch hosil qilingandan so'ng xarakat qilish (birinchi chap tomonga, transport yo'qligiga ishonch hosil qilganingizdan so'ng harakat qilish va yo'lning o'rtasiga borganingizdan keyin o'ng tomonga qarash va transport yo'qligiga ishonch hosil qilganingizdan so'ng xarakat qilish).

Yaqinlashayotgan transportni oldidan yugurib o'tish man etiladi.

Relsda harakat qiladigan transportni oldi tomonidan, boshqa transportlarni esa orqa tomonidan aylanib o'tish.

Yo'lni kesib o'tayotganda yo'lovchilar uchun mo'ljallangan svetofozni faqat yashil chirog'i yonganda harakat qilish.

Xizmat safarlariga borganida yo'l harakati xavfsizligi qoidalariga rioya qat'iy rioya etish.



Mehnatni muhofaza qilish sohasidagi nizolar qonun hujjatlarida belgilangan tartibda hal etiladi.

Mehnatni muhofaza qilish to'g'risidagi qonun hujjatlarini buzganlikda aybdor shaxslar belgilangan tartibda javobgar bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Mehnat muhofazasi va texnika xavfsizligi. O'.R.Yo'ldoshev, O.D.Rahimov, R.T.Xo'jaqulov, O.T.Hasanova.
2. Internet ma'lumotlari.
3. Qonunchilik palatasi tomonidan 2016-yil 10-martda qabul qilingan. Senat tomonidan 2016-yil 25-avgustda ma'qullangan. (Lex.uz)